

MILLIY VA GLOBAL QADRIYATLAR UYG'UNLIGIDA YOSHLAR TA'LIMINING ISTIQBOLLARI

Tiloverdiyeva Shoxzoda Shokirjon qizi

Alfraganus Universiteti Maxsus pedagogika kafedrası

"Logopediya" yo'naliishi 3-kurs talabasi

+998930671019

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy va global qadriyatlarning uyg'unligi jarayonida yoshlar ta'limini tashkil etishning ahamiyati va istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, global madaniyatning ta'siri hamda ular o'rtasidagi integratsiya masalalari yoritiladi. Shuningdek, yoshlarning ma'naviy barkamolligi, raqamli davr talablari va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, global qadriyatlar, ta'lim siyosati, yoshlar, innovatsiya, ma'naviyat, integratsiya, barqaror taraqqiyot.

Annotation: This article scientifically analyzes the importance and prospects of organizing youth education in the process of harmonizing national and global values. The role of national values in youth education, the influence of global culture, and the issues of integration between them are highlighted. Also, the spiritual well-being of youth, the requirements of the digital era, and priority areas of educational policy based on innovative approaches are considered.

Keywords: National values, global values, educational policy, youth, innovation, spirituality, integration, sustainable development.

Аннотация: В статье научно анализируются значение и перспективы организации образования молодёжи в процессе гармонизации национальных и глобальных ценностей. Рассматриваются роль национальных ценностей в образовании молодёжи, влияние мировой культуры и вопросы их интеграции. Также рассматриваются вопросы духовного благополучия молодёжи, требования цифровой эпохи и приоритетные направления образовательной политики, основанной на инновационных подходах.

Ключевые слова: национальные ценности, глобальные ценности, образовательная политика, молодёжь, инновации, духовность, интеграция, устойчивое развитие.

Bugun dunyo tobora globallashayotgan bir paytda yoshlar ta'limida milliy va global qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalasi dolzarb vazifaga aylandi. Chunki milliy meros va an'analardan uzilgan yoshlar o'z ildizini yo'qotishi mumkin, faqat global qadriyatlarga suyanish esa ularni ma'naviy bo'shliq sari yetaklaydi. Demak,

ta'limning asosiy vazifasi – yoshlarni o'z milliy ildizidan kuch olgan holda, global tafakkur va innovatsion dunyoqarash bilan qurollantirishdir. Zero, milliy qadriyatlar jamiyatning o'ziga xosligi va tarixiy xotirasini asrab qolsa, global qadriyatlar dunyo xalqlarini birlashtiruvchi umumiy tamoyillarni shakllantiradi. Shu boisdan, milliy va global qadriyatlar uyg'unligida yoshlar ta'limining istiqbollari masalasi zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Milliy va global qadriyatlar uyg'unligi – bu shunchaki ta'lim jarayonidagi bir tushuncha emas, balki butun insoniyatning kelajagini belgilovchi g'oya, jamiyat taraqqiyoti va yoshlar barkamolligining muhim garovidir. Milliy qadriyatlar xalqning o'zligini anglatib, o'z ildizidan oziqlantirsa, global qadriyatlar yoshlarni zamon bilan hamnafas, dunyo bilan hamjihat qilib tarbiyalaydi. Ana shu ikki omil uyg'unligida shakllangan ta'lim tizimi kelajak avlodni ham milliy, ham jahoniy miqyosda barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazadi. Milliy qadriyatlar – bu xalqning ruhi, tarixi va g'ururi; global qadriyatlar esa – insoniyatning kelajagi va birligidir. Ularning uyg'unligida yaratilgan ta'lim tizimi yosh avlodni yuksak ma'naviyat, teran tafakkur va zamonaviy bilimlar bilan qurollantiradi. Zero, kelajak yoshlarning qo'lida, yoshlarning kelajagi esa milliy va global qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan ta'lim samaradorligida mujassamdir.

Bugungi kunda yoshlar ta'limining asosiy vazifasi – milliy merosdan kuch olib, global qadriyatlardan samarali foydalanish, o'zida sharqona ma'naviyat va zamonaviy tafakkurni uyg'unlashtira oladigan barkamol shaxsni shakllantirishdir. Zero, milliy ildizini unutmagan va global tafakkur bilan qurollangan avlodgina kelajak taraqqiyotining poydevorini yaratadi.

Milliy qadriyatlar – xalqning asrlar davomida shakllangan an'ana, urf-odat, madaniyat va ma'naviyatining poydevori bo'lib, yoshlarni milliy o'zlikni anglashga, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bilan birga, global qadriyatlar – inson huquqlari, ekologik mas'uliyat, tinchliksevarlik, innovatsion fikrlash va raqamli kompetensiyalar yoshlarning zamon bilan hamnafas rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Yoshlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi – millat kelajagi garovidir”. Bu esa milliy va global qadriyatlarning uyg'un holda qo'llanishini taqozo etadi.

Milliy qadriyatlar asosida ta'lim:

Ona tili, adabiyot va tarixni chuqur o'qitish;

Oila, mahalla va jamiyatda tarbiya an'analarini mustahkamlash;

Milliy urf-odatlar va madaniyatni ta'lim jarayoniga singdirish.

Global qadriyatlar asosida ta'lim: Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;

Xorijiy tillarni o'rganishga keng sharoit yaratish; Global ijtimoiy masalalarga yoshlarning ongli munosabatini shakllantirish;

Xalqaro ta'lim dasturlari va almashinuv loyihalarini rivojlantirish.

Milliy va global qadriyatlarning uyg'unligi yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish bilan birga, ular kelajakda xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishlariga imkon beradi.

Milliy qadriyatlarning yoshlar ta'limidagi o'rni haqiida men quyidagi fikrlarni bildiraman. *Milliy qadriyatlar* – xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlari va tarixiy merosidir. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarga tayanish yoshlarning o'zligini anglash, ajdodlarga hurmat, Vatanga sadoqat va iymon-e'tiqod kabi yuksak fazilatlarni shakllantiradi. Ona tili va milliy adabiyot yoshlarning tafakkurini boyitadi, ularda milliy g'ururni uyg'otadi. Tarixiy xotira esa ularga kim ekanligini, qanday buyuk meros sohibi ekanini eslatib turadi.

Milliy an'analar, qadimiy udumlar yoshlarning ruhiyatini mustahkamlab, ma'naviy barkamollikka yetaklaydi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidicha, "Milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylamasdan turib, yangi O'zbekistonni barpo eta olmaymiz". Shu bois, milliy meros ta'lim jarayonida nafaqat fan sifatida, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilishi lozim.

Global qadriyatlar va zamon talablari to'g'risida esa men quyidagicha fikrlarni ayta olaman. Globallashuv sharoitida yoshlar faqatgina milliy qadriyatlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Chunki zamonaviy dunyo ulardan keng tafakkur, xorijiy tillarni bilish, ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanish va innovatsion fikrlashni talab qilmoqda. Global qadriyatlar yoshlarni: inson huquqlariga hurmat; xalqaro hamkorlik;

tinchlikparvarlik va ekologik mas'uliyat; raqamli savodxonlik va ilmiy innovatsiyalarga ochiqlik ruhida tarbiyalaydi. Bunday qadriyatlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantiradi. Shu boisdan, ta'limda global tendensiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy va global qadriyatlar uyg'unligi – barkamol avlod kaliti. Shunday ekan men yoshlar ta'limi jarayonida milliy va global qadriyatlar bir-birini inkor etmasdan, balki uyg'unlikda shakllangandagina samarali natija beradi. Masalan:

Milliy ruhiyat + global tafakkur → yoshda o'zligiga sodiqlik va zamon bilan hamnafaslik uyg'otadi.

An'anaviy qadriyatlar + innovatsion yondashuv → yoshlarni ijodkor, tashabbuskor va zamonaviy shaxsga aylantiradi.

Vatanparvarlik + umuminsoniylik → ular nafaqat o'z mamlakati, balki butun insoniyat kelajagi uchun mas'uliyatli bo'lishga olib keladi.

Shu boisdan, milliy qadriyatlarni saqlagan holda global qadriyatlardan foydalanish – ta'lim siyosatining strategik yo'nalishi bo'lishi kerak. Bu uyg'unlik barqaror taraqqiyot, ilmfan rivoji va ma'naviy yuksalishning muhim omilidir.

Amaliy yo'nalishlar: Milliy va global qadriyatlar uyg'unligini yoshlar ta'limida samarali amalga oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim: O'quv dasturlarida milliy meros va jahon yutuqlarini uyg'un o'qitish. Xorijiy tillar va raqamli texnologiyalarni chuqur o'rgatish. Milliy bayramlar va xalqaro kunlarni uyg'un nishonlash orqali yoshlarni ham milliy, ham global ruhda tarbiyalash.

Xalqaro talaba almashinuvlari va qo'shma loyihalarda yoshlarni faol ishtirok ettirish.

Mahalla, oila va maktab uchligida milliy qadriyatlarni mustahkamlash, oliy ta'limda esa global kompetensiyalarni rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: 2021.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yoshlar – kelajagimiz poydevori. – Ma'naviyat, 2020.
3. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.
4. Hodge D. Global Values Education: Teaching for Peace and Sustainability. – Routledge, 2018.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Ma'naviyat, 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari (2017–2024 yillar).